


NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni-birlikda

2018-yil davomida




- To'gridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Boshqarmaning elektron pochta orqali
- Og'zaki murojaatlar

Viloyat statistika boshqarmasiga 2018-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan **238 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **199 tasi** to'gridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, **15 tasi** boshqarmaning elektron pochta orqali, **24 tasi** og'zaki murojaatlar hisoblanadi.

Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

Ulushi-foizda




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, **88 tasi** (jamiga nisbatan 37,0 foiz) Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan, **28 tasi** (11,8 foiz) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan, **25 tasi** (10,5 foiz) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish yuzasidan, **48 tasi** (20,2 foiz) topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan, **49 tasi** (20,5 foiz) boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

- Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish
- Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish
- Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- Topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan
- Boshqa murojaatlar

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili

Soni-birlikda




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismini Namangan shahridan **144** ta (o'tgan yilning shu davrida **209** ta) kelib tushgan murojaatlar tashkil etgan. Shuningdek, Namangan tumanidan **19** ta, Yangiqo'rg'on tumanidan **11** ta, Pop tumanidan **11** ta, Chortoq tumanidan **9** ta boshqa viloyatlardan **8** ta, Mingbuloq tumanidan **5** ta, Norin tumanidan **5** ta, To'raqo'rg'on tumanidan **5** ta, Uychi tumanidan **5** ta, Uchqo'rg'on tumanidan **5** ta, Chust tumanidan **5** ta, Kosonsoy tumanidan **3** ta, boshqa respublikadan **3** ta murojaatlar kelib tushgan.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xoxlaysizmi, quyidagi,

- 
- **Ishonch telefonlari**
 - (0369)227-84-84, (0371)230-84-84

- 
- **Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish**
 - (0369)227-85-08

- 
- Pochta manzili – namstat@umail.uz elektron manziliga murojaat etishingiz mumkin.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

A.Abdayev
(0369) 227-85-06